

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

— 2-2023 —

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>R.Arslonzoda, O.Maripov</b>	
O'zbekiston Respublikasida davlat arxivlari faoliyatining takomillashib borishi .....	318
<b>R.Urazova</b>	
Avesto yashtlarida Mitraning sifatleri .....	325
<b>N.Nizametdinov</b>	
Markaziy Osiyoning Xitoy bilan aloqalari tarixi.....	331
<b>I.Burxonov</b>	
Asomiddin O'rinboev ilmiy merosida Abduxoliq G'ijduvoni tasavvufiy ta'limotiga oid ruq'alarning o'rganilishi.....	338
<b>N.Jumaev</b>	
XIX asr oxiri XX asr boshlarida Buxoro vohasi dehqonchilik madaniyati tarixidan .....	342
<b>D.Akramov</b>	
Xalq maorifining nazariy asoslari.....	348

## ADABIYOTSHUNOSLIK

<b>G.Oripova</b>	
Mustaqillik davri o'zbek lirikasida ritm va ohangdorlik.....	354
<b>I.Baltayeva</b>	
Adabiy vorisiylkning xorij adabiyotida o'rganilishi.....	359
<b>F.Oxunjonova</b>	
XIX asr oxiri va XX asr boshlarida zullisonaynlik an'anasi takomili (Nodim, Xilvatiy, xayratililar ijodi misolida) .....	362
<b>D.Uralova</b>	
Ulug'bek Hamdamning "Safar" hikoyasida ramziy obrazlar uyg'unligi.....	366
<b>S.Begmatova</b>	
Jahon adabiyotida distopik asar turlariga oid ilmiy-nazariy yondashuvlar .....	370
<b>A.Yuldashev</b>	
Alisher Navoiy asarlarida so'z tavsifi .....	374
<b>O.Barziyev</b>	
Farzand taqdiriga murojaat yoki ularga nasihat qilish mavzusiga oid an'anaviy poetik turkumlar .....	382
<b>D.Sultonova</b>	
Badiiy kriminal asarlar va ularning o'ziga xos xususiyatlari.....	387
<b>S.Alibekova</b>	
O'tkir Hoshimovning hajviy xarakter yaratish mahorati .....	392
<b>Sh.Sherg'oziyev</b>	
"Boburnoma" matnida foydalanilgan saj'i mutarrafnig ingliz tili tarjimalarida aks ettirilishi .....	396
<b>X.To'raxonova</b>	
Alisher Navoiyning "Lison ut-tayr" dostonida badiiy tasviriy vositalarning qo'llanilishi .....	400
<b>D.Hazratkuliyon</b>	
Hozirgi O'zbekiston tojik she'riyatida bediliy uslub an'analariga izdoshlik (Ja'far Muhammad Termiziy she'ri misolida) .....	403
<b>M.Narziqulov</b>	
Tojik adabiyotida g'azalning mundariyasi va shakli o'zgarishi .....	410
<b>M.Mirzoyev</b>	
Farzona Xo'jandiy she'rlarida mifologik personajlar badiiy ifodasining xususiyatlari .....	420

## TILSHUNOSLIK

<b>Z.Alimova</b>	
Alisher Navoiyning "Saddi Iskandariy" asaridagi ayrim forscha qo'shma so'zlarning leksik-semantik xususiyatlari haqida .....	425
<b>O.Nazirova</b>	

**FARZAND TAQDIRIGA MUROJAAT YOKI ULARGA NASIHAT QILISH MAVZUSIGA  
OID AN'ANAVIY POETIK TURKUMLAR**

**ТРАДИЦИОННЫЕ ПОЭТИЧЕСКИЕ ЦИКЛЫ НА ТЕМУ ОБРАЩЕНИЯ ИЛИ  
УВЕЩЕВАНИЯ К СУДЬБЕ РЕБЕНКА**

**TRADITIONAL POETIC SERIES ON THE TOPIC OF APPEAL TO THE FATE OF A  
CHILD OR ADMONITION TO THEM**

**Barziyev Oybek<sup>1</sup>**

<sup>1</sup>Barziyev Oybek

– Farg'ona davlat universiteti, filologiya fanlari  
bo'yicha falsafa doktori, PhD

**Annotatsiya**

Maqolada milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti Andijon adabiy muhitining vakili Mavjiy va qozoq adibi Abay (Ibrohim Qo'nanboyev) qalamiga mansub bo'lgan o'z o'g'illari taqdirini bayon qilish mavzusidagi she'rlar arman shoiri Avetiik Isakyan va marg'ilonlik alloma-shoir – Abdussamad Oxun Qoil Marg'iloniyning nasihat qilish ruhidagi lirik asarlari bilan qiyoslab o'rganilgan.

O'zbek, arman, qozoq millatiga mansub mazkur shoirlar ijodida ilgari surilgan g'oyaviy mushtarak jihatlar tahlil doirasiga tortilgan. Milliy uyg'onish davrining uch shoiri she'riyatidagi uslubiy yaqinlik, obraz va so'z qo'llashdagi badiiy mahorat masalalariga asosiy e'tibor qaratilgan.

Ma'lumki, qadimdan Sharq pedagogikasida farzand tarbiyasi, ayniqsa, o'g'il bolaning odob-axloqiga jiddiy e'tibor qaratib kelingan. Bu nozik masala asosan otalar zimmasiga yuklatilgan. O'rganilishi maqsad qilib olingan shoirlar she'rlarida ko'tarilgan muammo – o'g'il bolalar taqdiri va tarbiyasiga qaratilgan bo'lib, unda otalik mehri bilan ularning qismatiga achinish, g'amxo'rlik qilish, farzandidan judo bo'lish sabab va oqibatlariga alohida urg'u berilgan. Shu bilan birga lirik qahramon – shoir-otalarning o'z farzandlariga bo'lgan munosabati sharqona diniy qarashlar: betob farzandining tuzalishi uchun duo qilish, ularning vafotidan keyin faryod qilib yig'lash yoki nasihat ruhida yozilgan lirik asarlarda aks etgan bolani yoshligidan vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, yurtni qo'riqlash, unga jon fido qilish, ota-onaning tirikligi vaqtida qadrlash, ular vafotidan keyin doim yodlab turish, haqlariga fотиha o'qish kabi mavzular yoritilgan.

**Аннотация**

Абстрактный в статье в сопоставлении с лирическими произведениями организованы стихотворения на тему описания судеб маленьких мальчиков, написанные представителем узбекской литературы андижанской литературной среды Маеджием и казахским писателем Абаем (Ибрагим Конанбаев), армянского поэта Аветики Исаакяна поэта Маргилана Абдуссамада Ахуна Кайила Маргилани. В сферу анализа включены общие черты Гойи, представленные в творчестве этих поэтов, принадлежащих к узбекской, армянской и казахской национальностям.

Основное внимание уделено вопросам стилистической близости, образности и художественного мастерства в творчестве трех поэтов эпохи национального Возрождения.

Известно, что с древних времен в восточной педагогике с серьезное внимание уделялось воспитание уделялось воспитания детей, особенно манерам смышленного ребенка. Этот деликатный вопрос в основном является обязанностью отцов. Проблема, поднятая в направленной на организацию поэзии поэтов, сосредоточена на судьбе и воспитании мальчиков в которой особый акцент делается на причинах и следствиях отцовской любви, сострадания к их судьбе, заботы о них, заботы о них, отделены от своих детей. В то же время отношение лирических героев-поэтов-отцов к своим маленьким детям основано на восточных религиозных воззрениях: молиться о выздоровлении больного ребенка, плакать после его смерти или воспитывать ребенка в духе патриотизма от юный возраст, охраняющий страну, жертвующий ради нее своей жизнью, что нашло отражение в лирических произведениях, написанных в духе советов, такие темы, как делание, ценить родителей, пока они живы, всегда помнить о них после их смерти, благословлять их.

**Abstract**

In the article, the poems on the theme of narrating the fate of those who belong to the pen of Mavjiy and Kazakh's poet Abay (Ibrahim Ganabayev), a representative of the Andijan literary environment of Uzbek literature of the period of National Awakening, are compared with lyrical works in the spirit of exhortation by the Armenian poet Avetic Isakyan and Margilan-poet Abdussamad Oxun Qoil Margilani.

The common aspects of ideological, put forward in the work of these poets of Uzbek, Armenian, Kazakh descent, are drawn into the framework, of analysis. The main emphasis is on the issues of methodological closeness, artistic skills in the image and handling of the three poets of the era of national awakening.

It is known that since ancient times in Oriental pedagogy, the upbringing of children has been especially seriously focused on the manners of an son child. This delicate matter is largely entrusted to the fathers. The problem posed in the poems of poets, whose purpose was to be studied, was aimed at the fate and upbringing of son children, in which, with paternal love, they were given a special emphasis on the cause and consequences of pity, care, loss of a

## ADABIYOTSHUNOSLIK

child. At the same time, the attitude of the lyrical hero – poet-fathers towards their little children is Oriental religious views: blessing for the recovery of their child in check, crying out and crying after their death, or lyrical works written in the spirit of exhortation have covered such topics as raising a child from an early age at patriotic RIHI, denigration the land.

**Kalit soʻzlar:** gʻamxoʻrlik, otalik mehri, oʻgʻil taqdiriga murojaat, oʻgʻil taqdiriga achinish, faryod chekib yigʻlash, farzandlarga nasihat, ota-ona roziligini olish, ota-onaga muomala-munosabat, betob oʻgʻilga sogʻlik tilash, ota dusosi, ota vasiyati.

**Ключевые слова:** забота, отцовская любовь, обращение к судьбе сына, сочувствие судьбе сына, плач и плач, совет детям, получение родительского одобрения, лечение и отношение к родителям, пожелание здоровья больному, молитва отца, воля отца.

**Key words:** carelessness, fatherly love, appeal to the fate of son, pity for the fate of son's, crying out, admonition to children, receiving parental consent, treatment of parents, wishing health to the ungodly son, father's doso, father's will.

## KIRISH

Milliy uygʻonish davri oʻzbek adabiyoti sheʼriyatida asosan ijtimoiy voqeliklarga sababchi boʻlgan jarayonlar yoritilgan. Shu bilan birga bu davr adabiyotiga mansub sheʼriy asarlarda oilaviy muammolar: otalarning oʻz oʻgʻillarining taqdirini bayon qilishi yoki kelajak avlod – farzandlarga nasihat qilish kabi mavzular qalamga olingan.

Maʼlumki, Sharq adabiyotida oʻgʻil farzandni voyaga yetkazish, unga yoshligidan bironta hunar oʻrgatish, uning ilm olishiga asosiy eʼtibor qaratilgan. Ayniqsa, bu nozik masala mumtoz adabiyot davrida, xususan, Kaykovusning “Qobusnoma” asarida, hazrat Alisher Navoiy “Xamsa” asarining “Hayrat ul-abror” dostonida va Zahiriddin Muhammad Boburning oʻgʻillariga qilgan nasihatlarida yaqqol koʻzga tashlanadi.

Fargʻona vodiysiga mansub milliy uygʻonish davri shoirlarining ijodida ham yuqorida nomlari zikr etilgan buyuk soʻz sanʼatkorlarining anʼanalari oʻziga xos davom ettirildi. Oʻz navbatida sheʼriy janrlarda uchrovcchi farzand taqdiriga murojaat qilish yoki ularga nasihat qilish anʼanasi arman va qozoq sheʼriyatida ham kuzatilgan boʻlib, ular qardosh xalq sheʼriyatida uslubiy izdoshlik, obraz va soʻz qoʻllashdagi mushtaraklik belgisi sanaladi.

## ASOSIY QISM

Milliy uygʻonish davri Fargʻona vodiysi shoirlari sheʼriyatiga murojaat qilish orqali ularning hayot yoʻli, tahlikali va ayanchli kechganligi bilan tanishamiz. Shu bilan birga oʻz oʻgʻillarining ogʻir betob boʻlishi natijasida ularni bevaqt yoʻqotishlari kabi voqeliklar haqida maʼlumotlarga ega boʻlamiz.

Andijon adabiy harakatligining vakili Muhammadsiddiq Eshon Mavjiy (1879-1960) ning hayot yoʻli ham tahlikali va suronli yillarga toʻgʻri keldi. Shoir haqidagi ilmiy manbalarning birida “...joʻshqin hayot tarzini shoʻro tuzumining mashʼum qatagʻon siyosati buzadi va 1932 yili Mavjiyni bu yerdan ketishga majbur qiladi. U Sharqiy Turkistonning Shinjong shahriga bosh olib ketadi. Chorak asr davomida Vatan sogʻinchi yurtdan olisda hayot kechiradi”. [Кўҳна садолар: 1], deya maʼlumotlar uchraydi.

Shoirning hayot tarzi uning qalamiga mansub boʻlgan “Afgʻonim mening”, “Yigʻlarman”, “Shahri Fargʻonamga ketsam...”, “Gapirmasman”, “Bolam” kabi oʻz davrining real ijtimoiy voqeliklari aks etgan lirik asarlarda kuzatiladi. Uning “Yigʻlarman” radifli bir muxammasiga “Xitoy xalq ozodlik harakatida xizmat qilib, gomindanchilar tomonidan tiriklay koʻmib yuborilgan oʻgʻlim Ubaydullohga bagʻishlayman” deb epigraf qoʻyilgan. Sheʼr tom maʼnoda otalik mehri, oʻz farzandining taqdiriga achinish ruhi bilan sugʻorilgan. Mazkur muxammas gʻoyaviy mohiyatiga koʻra, oʻtgan asr boshlarida yuz bergan mardikorlikka olish voqealari bilan bogʻliq holda yozilgan Abdulla Avloniy, Hamza Hakimzoda, Gʻafur Gʻulom sheʼrlaridagi uslubiy yaqinlikni yodga soladi.

Seni, oʻgʻlim, kecha-kunduz qilib koʻp yod, yigʻlarman,

Berib ikki jahon savdosini barbod, yigʻlarman,

Koʻngil hasratini motamda aytib bod, yigʻlarman,

Chiqorib koʻkka ohimni, chekib faryod, yigʻlarman,

Chidolmasman firoqingga tuman, ming dod, yigʻlarman. [Кўҳна садолар: 2]

Muxammas soʻnggida shoir oʻgʻilidirilgan yil nomi keltiriladi va unda otaning ajalga murojaat qilishi hamda judolikdan faryod qilayotganligi aytiladi:

Mingu uch yuz oltmish toʻqqizinchi yil ado boʻldi,

Kelib Ofoq xoʻjam(ning) yonlariga, birga jo boʻldi,

Kelib Anjon yoʻlida, chun shahidi karbalo boʻldi,

Netay, Mavjiy, Ubaydulloh bolasidan judo boʻldi,

Seni(ng) dastingdan emdi, ey ajal, faryod, yig'larman.

Yoki shoir o'g'lining taqdiriga bag'ishlangan "Bolam" radifli muxammasi ham xarakterli. Unda ham otaning judolikka duchor bo'lgan qalb iztiroblari bayon qilinadi:

Tag'ofil ichra dushmanga asir bo'lgon bolam,  
 Ey, alifdek qomating zulm ila bukilgon bolam,  
 O'n gulingdan bir guling ochilmayin so'lgon bolam,  
 Uch bolosin bizga tashlab, yosh turib, o'lgon bolam,  
 Jon bolam, jonim bolam, jonimga o't yoqqon bolam. [Кўхна садолар: 3]

O'z o'g'lining erta vafotidan alam tortish va ularning taqdiriga murojaat qilish motivlari bilan bog'liq an'anaviy poetik turkumlilik qozoq shoiri Abay (Ibrohim Qo'noboyev) (1845-1904) ijodida ham uchraydi. Ilmiy manbalarda shoirlar ichida serfarzand va mehribon ota bo'lgan Abayning jami 10 nafar bolasi bo'lganligi qayd etilgan. Abay hayotida bir emas, ikki o'g'lidan judo bo'lganligi, bu qismat uning sog'ligiga qattiq ta'sir qilib, pirovardida o'zi gapirolmay qolganligi, ikkinchi o'g'li – Mag'aviyaning 34 yoshida bevaqt vafotidan keyin qirq kun o'tib u ham bu dunyoni tark etganligi ma'lum. Bu borada adabiyotshunos olim Abdulla Rustamovning "Qozoq she'riyatining Asqar tog'i" nomli ilmiy maqolasi qimmatli manba sanaladi. Mazkur maqolada "1894 yildan Abay oilasida fojiali voqealar sodir bo'la boshladi. Shu yili Peterburgdagi harbiy bilim yurtini tugatib, akademiyaga kirishga hozirlanayotgan sevikli o'g'li Abdurahmon sil kasalligiga uchraydi va bir yildan so'ng 1895 yili Verniy (hozirgi Olma ota) shahrida 27 yoshida vafot etadi" [Rustamov A:4], deya ma'lumot beriladi. Shundan so'ng Abay ijodida o'g'illarining taqdirini bayon qilish bilan bog'liq an'anaviylikni yuzaga keltirgan poetik turkumlilikka murojaat qilish avj ola boshlagan. Ya'ni, og'ir ahvolda xastalanib uzoq yurtda davolanib yotgan Abdurahmonga bag'ishlangan quyidagi satrlar mehribon ota siymosini uning qilgan duolari orqali gavalantirishga xizmat qilgan:

Zorlansa bandasi,  
 Bermasmi ollosi.  
 Sog'lik ber erkamga,  
 Shu ota duosi.[Абай. Шеърлар ва поэмалар: 5]

Keying satrlarda otaning tez orada o'g'lining sog'-omon ko'rishini orzu qilish motivlari mujassam:

Ne yozay, men behol  
 Qo'l chatoq, tilim lol.  
 Seni sog' ko'rishlik  
 Cho'ng orzu, cho'ng xayol.

She'rning keyingi real vaqt belgilanib, ya'ni u kasal yotganligiga ikki oy bo'lganligi yoritiladi. Shu bilan birga lirik qahramon – ota doktorlardan najot kutadi:

Lekin oy shu ahvol,  
 Yotibdir bemajol.  
 Ey, xudo, doktorlar  
 Diliga to'g'rilik sol.

1894-yili yozilgan mazkur she'r Abay ijodida o'ziga xos o'ringa ega bo'lib, u Mavjiy ijodidagi ota siymosidan o'z o'g'lining tirik qolishi va tezroq tuzalib bag'riga qaytib kelishiga bo'lgan umidning hali so'nmaganligi bilan xarakterlanadi.

Shoirning judolik azoblari bilan bog'liq she'ri "Jim ko'nglim..." nomli she'rida oshkora ifodalangan bo'lib, unda lirik qahramon sifatida bu dunyo haqida chiqarilgan xulosalari ifodalangan:

Oqin suvday to'lqinlab,  
 O'tayotir hayotim.  
 Kasal emas, sog' emas,  
 Quridi hol, quvvatim!..  
 Jim-jim ko'nglim, jim ko'nglim,  
 Hech o'ylanma, yetadi!  
 Bu o'ylardan foyda yo'q,  
 Umr ma'lum, o'tadi.

Ajal ham tez yetadi. [Абай. Шеърлар ва поэмалар: 6]

Marg'ilonlik alloma-shoir Abdussamad Oxun Qoil Marg'iloniy qalamiga mansub bo'lgan muxammas "Farzandlarga nasihat" deb nomlangan. Muxammasni keljak avlod tarbiyasi uchun yuksak o'git va nasihat, deb baholash mumkin. Unda bir qator sharqona fazilatlar: ota-onaga bo'lgan hurmat, ularning tirikligida e'zozlash, vafot etganlaridan keyin haqlariga duo qilish kabialr uqtirilgan. Muxammasning dastlabki band ota-onalarning hayotlik vaqtida roziligini olish g'oyasi bilan bog'liq:

## ADABIYOTSHUNOSLIK

Aziz o'lgay jahonda xalq aro bee'tibor o'lmas,  
 Yetar oson qo'lga maqsadi ko'p intizor o'lmas,  
 Kechurgay komronlikda jahon boshig'a o't o'lmas,  
 Anoni kimki rozi qilsa g'am anga duchor o'lmas,  
 Ato rozi bo'lur har kimsadin olamdin hor o'lmas. [Файзуллаев Р., Абдулахатов Н: 7]

Keyingi bandlarda ota-onaning farzandi kamol topshidagi beminnat xizmatlariga ishora qilinadi:

Ato birlan ano yoshliklaringda qiynalib boqqan,  
 Salomatlik umidi birla chillangda chirog' yoqqon,  
 Yomon ko'z sharridan, emin bo'lurmu deb, tumor taqqon,  
 Alarg'a beadablik birla so'zg'a bo'lmagil chaqqon,  
 Bularni rasmi odobidan ortuq iftixor o'lmas.

Muxammas bandlarining birida farzandning ota-onasiga bemehr do'stlaridan yiroqqa qochishi lozimligi eslatilgan, bu dunyoda ulardan duo yoki qarg'ish olgan farzandlarning hayot yo'lida yuz bergan oqibatlar uqtiriladi:

Atog'a beadablik aylagan o'rtoqlaringdan qoch,  
 Du olgan birodarlarni boshidan kumushlar soch,  
 O'zidan o'zgag'a Parvardigorim aylamas muhtoj,  
 Kimiki olsa qarg'ish gavhari umri bo'lur taroj,  
 Ketib fayzi jahonda kori borida baror o'lmas.

Muxammas bandlariga farzandlar tarbiyasida muhim sanalgan oilaviy munosabatlarni o'rnatishda og'zaki nutqning tutgan o'rni, so'zning anglatgan ma'no va mohiyati xususida ham gap boradi. Ayniqsa, ota-onaning keksaygan chog'larida ko'ngillarini qoldirmaslik, oilaviy mojarolarni o'z vaqtida bartaraf qilish va ularga qilgan muomalamiz har doim chiroyli bo'lishiga da'vat etiladi:

Atoni chol deb chaqirma mol degan bo'lgay,  
 Desang kampur ononi misli otang chol degan bo'lgay,  
 Alar kelganda chehrang buzmagil yo'qol degan bo'lgay,  
 Kelinni qaynag'a qayrarda janjal sol degan bo'lgay,  
 Nashoti zindagoni fayzi anda barqaror bo'lmas.

Ato norozi bo'lsa xalq aro oqi padar derlar,  
 Anodin qarg'ish olganni gadoyi darbadar derlar,  
 Ketib tekarig'a kori ko'ri doim zarar derlar,  
 Haqiqatdin ani ikki jahonda bexabar derlar,  
 Jahonda o'ylagil oqiy padardin katta or bo'lmas.

Shoir muxammasi kishini to'lqinlantirishi tabiiy hol sanaladi. Sababi, bugungi globalashuv zamonda farzandlarning ota-onaga bo'lgan mehri, ularni hayotlik vaqtlarida e'zozlash, roziligini olish kabi masalalar kundan-kunga susayib bormoqda. Abdussamad Oxun Qoil Marg'iloniy ijodi haqida shoir Ismoil Mahmud Marg'iloniy 2007 yilda yozgan "Marg'ilon – orif zotlar makoni" nomli maqolasida "...Olliberdi hojidadaning xotirlashicha, Marg'ilonga tashrif buyurgan Mulla Sharif Hindistoniy – Mavlaviy domla Abdussamad Oxundada g'azallarini eshitib, "Hay-hay-hay, nimaga biz shu vaqtgacha bu ulug' zotning baytlaridan bexabar qolganmiz. Avj nuqtalarida bitilgan ekan-ku", deya e'tirof etgan ekanlar"[Ismoil Mahmud Marg'iloniy: 8], deb qayd etadi.

Muxammasning keyingi bandlarida narigi dunyo bilan bog'liq voqeliklar bayon qilinadi. Bu o'tkinchi dunyoda ularning roziligini olib qolish zarurligiga alohida urg'u beriladi:

Tamomi ahli imon maqsadidur jannatul ma'vo,  
 Talab aylar Xudodin borgali ul manzili a'lo,  
 Agar sen ham talab qilsang borub kirmakni ey barno,  
 Ato birlan anoni xizmatini aylagil bajo,  
 Alar to rozi bo'lmas manziling dorul qaror o'lmas.

Milliy uyg'onish davri adabiyotida shoir-otalarning o'z o'g'lini vatanparvar bo'lib ulg'ayishiga chaqirish, el-yurt dardi bilan yashashga da'vat etish, ayniqsa, yurt qo'riqchisi sifatida kamol topishga undash g'oyalari bilan sug'orilgan she'rlar ham uchraydi. Bunday mavzuda bitilgan she'rlar an'anaviy bir poetik turkumlilikdan darak beradi.

Arman shoiri Avetik Isakyaning o'g'liga bag'ishlab yozilgan "Avikga" nomli she'rinda ham nasihat mavzusi yetakchilik qiladi:

Vataning jondan sev umring boricha,  
 Umringni bag'ishla kunduzu kecha.

Himoya qil uni sidqu dilingdan,  
Jonbozlik ko'rsatish kelsa qo'lingdan –  
Yurt uchun hech qachon mag'rurlanmagil,  
Bu sening farzandlik burching, o'g'lim, buni billi! [Qardoshlik  
qo'shig'i:9]

Shoirning mazkur she'rining so'nggi satrlarida Qoil Marg'iloniy qo'llagan oxirat bilan bog'liq poetik turkumlilik kuzatiladi:

Baxt, tinchlik, sevgi-chun yashagin omon,  
Men mangu ko'zimni yumganim zamon.  
Qabrimga kel yolg'iz, sevimli o'g'lim,  
Va qayg'ung izhor et boshing egib jim.

Shu o'rinda lirik qahramon – shoir-otalarning ruhiyati jimlikni istashi haqidagi fikrlar qozoq shoiri Abayning yuqorida keltirilgan she'rida va arman adibi Avetik Isakyan ijodida aynan takrorlanishi an'anaviy g'oyaviy bir turkumlilikdan dalolat berishini eslatib o'tish joiz.

#### NATIJALAR

O'zbek, qozoq va arman she'riyatida qo'llangan shoir-otalarning o'g'illari taqdirini bayon qilishi yoki farzandlarga nasihat qilish g'oyalari mazkur millat vakillari ijodidagi adabiy emakdoshlik, bir-biridan ta'sirlanishi samarasi sanaladi. Bu emakdoshlik va ta'sirlanish aynan milliy uyg'onish davri adabiyotining she'riy asarlarida qo'llanganligi bilan xarakterlanadi. Hasbi hol yoki didaktik yo'nalishda bitilgan mazkur lirik asarlar o'z davrining real voqealardan xabar beradi.

#### XULOSA

Muxtasar qilib aytganda, Andijon adabiy muhiti vakili – Mavjiyning o'z o'g'lining taqdiriga bag'ishlab yozilgan muxammasi qozoq adibi Abay ijodiga mansub lirik asar bilan bir g'oyaviy mushtaraklikka ega. Har ikki shoir ijodida bevaqt kelgan ajal hukmidan qayg'urish va otalik mehriining ustuvorligi ayon bo'ladi. Marg'ilonlik alloma-shoir – Abdussamad oxun Qoil Marg'iloniy muxammasida farzand tarbiyasida diniy talqinlarning tutgan o'rni, ota-onaga hurmat va e'zoz va shu kabi ko'tarilgan mavzular arman xalq shoiri – Avetik Isakyan she'riyatida ham uchraydi. Shoir Qoil Marg'iloniy farzandlarga nasihatlarini sabab va oqibatlarini ifodalagan bo'lsa, Avetik Isaakyaning qilgan da'vat va o'giti o'g'ilining tug'ilib o'sgan yurti va otasi oldidagi burchini eslatib o'tganligi bilan ahamiyatli. Ularning she'riyatidagi farqli jihatlar – birining ijodida farzandlarga nisbatan bildirilgan didaktik tushunchalar umumiy ifodalangan bo'lsa, ikkinchisida yagona obraz – o'g'ilga qaratilganligi bilan xarakterlidir.

#### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ko'hna sadolar (Manzur, Ojiz, Muntazir, Bimiy, Muhib, Pirimqori, Hofiz, Mushtoq, Mavjiy) / To'plab, nashrga tayyorlovchi: Madg'oziyev I, prof. Quronov Dning umumiy tahriri ostida. – Toshkent: Akadernashr, 2020. 226 – bet. Old sounds (Manzur, Ojiz, Muntazir, Bimi, Muhib, Pirimqori, Hafiz, Mushtoq, Mavjiy) / Collected, prepared for publication: Madgoziyev I. prof. Under the general editorship of Kuronov D. – Tashkent: Akadernashr, 2020. 226-page.
2. O'sha asar. 250 - bet. That work. 250-page.
3. O'sha asar. 252 - bet. That work. 252-page.
4. Rustamov A. Qozoq she'riyatining Asqar tog'i / "Sharq yulduzi" jurnali. 2018-yil, 4-son. 68-bet. Rustamov A. Mount's Askar of kazakh law / Eastem Star madazine of the kazakh Sherry. 2018, Issue 4. 68-page.
5. Abay. She'rlar va poemalar / Redaktor: Mirtemir. – Toshkent: G'. G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. 1970. 72 – bet. Abay. Lions and poems / Redaktor: Mirtemir. – Tashkent: Literature and art publishing house named after G.Gulom. 1970. 72-page.
6. O'sha asar. 110 – bet. That work. 110-page.
7. Fayzullayev R., Abdulahatov N. Abdussamad Oxun Qoil Marg'iloniy. Ikkinchi kitob. – Toshkent: Noshir, 2014. 435-bet. Feyzullayev R., Abdulahatov N. Abdussamad Oxun Qoil Margilani. The second book. – Tashkent: Publisher, 2014. 435-page.
8. Mahmud Ismoil. Marg'ilon – orif zotlar makoni / Suhbatdosh Abdullayev M. "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasi. 2007-yil, 41-son, 3-bet. Ismail Makhmud. Margilan is a place of noble breeds / Interlocutor Abdullayev M. Uzbekistan literature and art newspaper. 2007. Issue 41. 3-page.
9. Qardoshlik qo'shig'i. She'rlar / Jamoatchilik asosida to'plab, nashrga tayyorlovchi: Omon Matjon. – Toshkent: G'. G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1974. 103-bet. Brotherhood spoon. Lions / Collected by the public and prepared for publication: Aman Matjan. – Tashkent: G.Gulom Publishing House Literature and Art, 1974. 103-page.